

## MAXMUR HAMDA NODIM NAMANGONIY HAJVIYOTIDA AN'ANAVIYLIKNING O'ZIGA XOSLIGI

*Nazarova Xilola Gulomjonovna*

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti o'qituvchisi  
[uzbekustoz@gmail.com](mailto:uzbekustoz@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada XIX asrda hukm surgan Qo'qon xonligidagi tuzumga qarshi hurfikr adabiyot vakillaridan Maxmur va Nodim Namangoniylarning tanqidiy qarshlari tahlil qilingan. Ushbu shoirlar o'zlarining satirik xarakterdagi lirikasi va prozaik asarlari orqali hayotni aniq real tasvirlarini, hukmdor tabaqa vakillari davridagi mehnatkash aholining og'ir ahvolini yaqqol ochib bera olgan. Bu bilan ma'rifatparvar tendensiya namoyandalaridan Maxmur hamda Nodim Namangoniy hajviyotidagi an'naviylikning o'ziga xos jihatlari yoritilgan.

**Kalit so'zlar.** Tuzum, Maxmur, hajviyot, Nodim, mehnatkash xalq, an'naviylik, ma'rifatparvarlik, demokratik tendensiyalar.

## MAHMUR VE NODIM NAMANGANI'NIN MİZAHINDA GELENEKSELLİK ÖZELLİKLERİ

*Nazarova Hilola Gulomjonovna,*

Özbek-Finlandiya pedagoji enstitüsü'nde öğretmen

**Özet.** Bu makale, liberal edebiyatçılardan Mahmur ve Nedim Namangoni'nin 19. yüzyilda hüküm süren Hokand Hanlığı rejimine yönelik tepkilerini analiz etmektedir. Bu şairler, hicivli şiirleri ve düzyazılıyla, egemen sınıfın iktidarı sırasında işçi sınıfının yaşamını ve içinde bulunduğu zor durumu canlı ve gerçekçi bir şekilde aktarabilmişlerdir. Bu durum, Aydınlanma akımının temsilcileri olan Makhmur ve Nodim Namangoni'nin mizahındaki gelenekselciliğin kendine özgü yönlerini ortaya koymaktadır.

**Anahtar kelimeler.** Rejim, Mahmur, mizah, Nodim, çalışkan halk, gelenekçilik, aydınlanmacılık, demokratik eğilimler.

## ОСОБЕННОСТИ ТРАДИЦИОНАЛИЗМА В ЮМОРЕ МАХМУРА И НОДИМА НАМАНГАНИ

*Назарова Хилола Гуломжоновна,*

Преподаватель Узбекско-Финского педагогического института

**Аннотация.** В статье анализируются критические выступления либеральных литературных деятелей Махмур и Надима Намангани против режима Кокандского ханства, правившего в XIX веке. С помощью своих сатирических стихов и прозы эти поэты смогли передать яркое и реалистичное изображение жизни и тяжелого положения рабочего класса в период правления правящего класса. Это подчеркивает уникальные аспекты традиционализма в юморе Махмур и Нодима Намангани, представителей просветительского направления.

**Ключевые слова.** режим, Махмур, юмор, Нодим, трудолюбивый народ, традиционализм, просвещение, демократические тенденции.

## THE CHARACTERISTICS OF TRADITIONALISM IN THE SADNESS OF MAHMUR AND NODIM NAMANGANI

*Nazarova Khilola Gulomjonovna,*

*Teacher of the Uzbek-Finnish Pedagogical Institute*

**Abstract.** This article analyzes the critical responses of Makhmur and Nodim Namangoni, representatives of liberal literature, against the regime in the Kokand Khanate that ruled in the 19th century. Through their satirical lyrics and prose works, these poets were able to clearly portray life and the difficult situation of the working population during the reign of the ruling class. This highlights the specific aspects of traditionalism in the satire of Makhmur and Nodim Namangoni, representatives of the enlightened tendency.

**Keywords:** regime, Makhmour, humor, Nodim, hardworking people, traditionalism, enlightenment, democratic tendencies.

Maxmur hamda Nodim Namangoniy yashagan davr va ijod qilgan adabiy hayotga to‘xtalar ekanmiz, avvalo, XVIII asar oxiri XIX asr birinchi yarmidagi Qo‘qon xonligidagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga e’tiborimizni qaratishimiz kerak bo‘ladi. Buxoro xonligida XVIII asrning birinchi yarmida kuchaygan parokandalik natijasida Ming urug‘i qabilasi yetakchilari Qo‘qon xonligining asos solinishida muhim o‘rin tutganlar. 1709-yilda Shohruhbiy boshchiligidida Qo‘qon xonligi vujudga keldi. Bu xonlik o‘z tarkibiga hozirgi Farg‘ona, Namangan, Andijon, Toshkent, Xo‘jand, Qirg‘iziston va Janubiy Qozog‘istonlarni qamrab olgan. Xonlikda Shohruhbiy va uning avlodlari birin-ketin hukmronlikka kelib, davlatning siyosiy, iqtisodiy hayotini oshirish bilan bir qatorda, madaniy hayotda ham xonlik nufuzini oshirish yo‘lida ijodkorlarga, shu jumladan, adabiyot va san’at vakillariga keng imkoniyat yaratishga intildilar.

Ammo, Bizga tarixdan ham ma’lumki, XVIII asar oxiri XIX asar boshlarida Qo‘qon xonligi tarkibida xonlar, beklar va katta yer egalari, ya’ni ekspluatator sinf vakillari hukm surar edi. Ayniqsa, bunday sinf vakillari xalq o‘rtasida hurofat va diniy taassublarni kuchaytirishga urinar edi, mehnatkash oddiy xalq ommasiga keskin sinfiy kurashlar olib borilar edi. Bundan tashqari xonliklar o‘rtasida talashishlar, urushlarning og‘irligi, mashaqqati mehnatkash xalq gardaniga tushardi. Bunday kurashlar adabiy va madaniy hayot rivojiga ham keskin salbiy tasir etmay qolmagan. Bundan anglash mumkinki, bu jarayonni demokratik tendensiyadagi adabiyot bilan reaksiyon adabiyot o‘rtasidagi kurash desak aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. Xo‘sh, aslida reaksiyon saroy adabiyoti g‘oyasi qanday bo‘lgan? Bu g‘oyaviy jihatdan qashshoq, formalistik adabiyot bilan, faqat va faqat hukmron xonlikni maqtashdan iborat bo‘lgan bo‘lsa. Demokratik tensiyadagi adabiyot esa unga qarshi bo‘lib, formalizm hukmronlik qilgan davrdagi mehnatkash qiynalgan ommaning hayoti va kurashini tasvirlagan. Bu adabiyot ekspluatatorlarni ya’ni hukmdorlar, xonning amaldor va lagabardor malaylarini qattiq tanqid ostiga olgandir. Mana shunday demokratik tendensiyanig eng ko‘zga ko‘ringan vakillari sifatida Maxmur, Muqumiy hamda Nodimlarni ko‘rishimiz mumkin. Bu ijodkorlar hukmron tabaqalar avj olgan davrda yashab ijod etgan bo‘lib, davrning butun jabr-zulmlarini birma-bir boshidan o‘tkazgan. Shoir Maxmurning birgina “Hapalak” she’ri va Nodimni

ana shu she’rga bog’lagan sakkiz bandli muxammasida ana shu davridagi kambag‘al ezilgan dehqonlarning og‘ir hayoti, Qo‘qon xonligidagi qishloqlarning xonavayron bo‘lgan holatininig real kartinasini chizib bera olgan. Shu qatorda bu ijod namunalari Qo‘qon xonligidagi avom xalqning tipik namunasi sifatida, o‘sha davrdagi qishloq aholisining achinarli ahvolini mukammal tasvirlagan desak mubolag‘a qilmaymiz.

*Xalqini ko ‘rsang agar o ‘lasa-yu, qoqu-xarob,*

*Ochlikdan egilib qomati misli kamalak.*

*Gar tahorat qilsa qovmi suv topolmay nochor,*

*Betini qum-la yuvib, yuziga surtar guvalak. [1.52]*

*Birini egnida yirtig ‘to ‘nu ko ‘ylaklari tor,*

*Tomga tappi yopadur (ko ‘ksi) ochug‘, ochu nahor,*

*Aralash erkak ila modalari kunga qator,*

*Gar tahorat qilur o ‘lsa suv topolmay nochor,*

*Yuzini suv bila yuvib (boshiga) surtar guvalak. [5.30]*

Shu bilan birga umumiyoq o‘rtalim maktablar uchun mo‘ljallangan adabiyot darsliklariga Maxmuring “Hapalak” she’ri bilan birga yangi topilgan “Muxammas”, “Abdulkarim Namangoniy to‘g‘risida hajv”, “Itboqar qozi tilidan”, “Qozi Muhammad Rajab to‘g‘risida hajv”, ”Dar sifati Hakim Turobiy xazor xalta budur”, “Hoji Niyoz tilidan aytilgan g‘azal” singari she’rlari kiritilgan bo‘lib, bu she’rlar “O‘zbek adabiyoti” xrestomatiyasida nashr etilgan. [3.153-159]

1950-yil Qo‘qon shahrida Po‘latjon Qayumov hamda xalq shoiri Asqarali Hamroaliyeva (Charxiy)larning tashabbusi bilan Maxmur devoni topilgan. Bu qo‘lyozma devonda uning hajviy-yumoristik she’rlari, muxammaslari hamda qasidalari joy olgan. V.Abdullayevning ta’kidlashicha, “O‘zbek adabiyotidagi qasidachilik tarixida sujetli hajviy qasidaning eng yaxshi namunalaridan birini shoir Maxmur yaratgan. Uning “Dar hajvi Xo‘ja Mir Asad” asari qasidai hajviya janriga mansub asardir... Qasida, umuman, biror hodisa-voqe, tarixiy shaxs va boshqalarni maqtash yoki tabiat manzaralarini tasvirlash maqsadida yozilar edi; Maxmur esa qasidalaridan satirik obektni tasvirlash uchun foydalanib, satiraning janr jihatidan imkoniyatlarini kengaytirdi va boyitdi. Shuning o‘zi ham har bir masalaga ijodkorona va novatorlik ko‘zi bilan qaraganini ko‘rsatadi. Maxmur bu asarini ham mulammoat uslubida yaratib, undagi o‘zbekcha va tojikcha misralarida satirik obyektning sirini fosh etdi, asl basharasini oolib tashladi va o‘limtik xasis obrazini yaratdi” [7.301-302].

Satirik xarakterdagi janrlar sohasida mana shu kabi novotorlikni Muqumi, Zavqiy va Nodimlar ijodida ham kuzatish mumkin. Zavqiyning “Dar mazammati zamona”, “Abdurahmon shayton”, “Go‘daslik boy haqida hajv” satiralari, Muqumiyning “Tanobchilar”, “Saylov”, “To‘yi Iqon bachcha” kabi masnaviy va hikoyalari, Nodimning “Xit qildi”, “G‘alati”, “Maqsudi alarni siym-u zardur”, “Shikoyati paxta”, “Dar mazzammati zamona” kabi g‘azal va muxammaslari garchi mavzu jihatidan Navoiy satirasidan farq qilsa-da, g‘oyaviy-mazmun jihatidan navoiyvor yaratilgan. Maxmur, Muqumi, Zavqiy va Nodimlar ijodida bir mavzu, bir satirik obyekt haqida satirik asarlar siklining yaratilishi ham o‘zbek adabiyoti satirasi tarixida yangilik bo‘ldi. Ushbu shoirlar ijodini, asosan, satirik xarakterdagi lirika tashkil etgan. She’riy to‘plam va bayozlarida muxammas, musaddas, musamman, g‘azal, masnaviy, qit‘a kabi she’riy janrlar o‘rin olgan. Mumtoz adabiyotda lirikaning asosiy qismini g‘azallar tashkil etadi. Bizga adabiyot nazariyasidan ham ma’lumki, g‘azal janri yuzaga kelgandan buyon to XIX asrga qadar ichki hissiyotlarni yorituvchi shakl sifatida ishlatilgan, ya’ni, odatda, oshiqning ma’shuqaga erisholmagan muhabbat

iztiroblarini kuylovchi, botiniy hamda zohiriy ishqni tarannum etuvchi she'riy shakl edi. Ammo bu ijodkorlar adabiyotimizning hurfikr yo'nalishdagi vakillari bo'lgani sabab adabiy shakl bo'lgan g'azal janridan o'zining xalqparvar fikrlarini ifodalash uchun foydalangan. Ularning ba'zi sotsial ahamiyatga ega bo'lgan hajviy-taqidiy xarakterdagi she'rlari g'azal shaklida yozilgan bo'lib, bu bilan shoirlar XIX asrdagi tuzum ziddiyatlarini ro'yrost yoritib bergen. Buni biz Maxmurning "Hapalak", "Afsofi qozi Muhammad Rajab Avj" (Qozi Muhammad Rajab to'g'risida hajv), "G'azali qoziyi xo'ja sagbon" (Shahriyora, qoziyi bechora sulton deb hama, Xos sagbon bo'ldim oxir amru farmon deb hama) [4.96], "Dar hajvi domulla Atoyi Ashtiy" (Domullo Atoyi Ashtiy), "Afsofi qozi Muhammad Zuhur zargar" (Qozi Muhammad Zuhur zargarning sifatlari), "G'azali Hoji Niyoz" (Hoji Niyozning g'azali); Nodim Namonganiyning "Xit qildi" (Necha jabru jafo-yu zulm bedod ila har soat, Mani bechorani bu charxi kajraftor xit qildi) [5.25], "Ehtiyoj" (Harchand yuz o'gursamu so'ksam kelur yana- Oldimga to'g'ri, shilqimu beor ehtiyoj) [5.27] kabi g'azal shaklida yozilgan lirkasida ko'rishimiz mumkin. Bunda erishilmagan muhabbat yoki tor ma'nodagi hislar yoritilmagan, aksincha, xon amaldorlari, eksplutator hamda feodalizm hukm surayotgan jamiyat vakillariga nisbatan nafrat, alam va g'azab motivlari ochib bera organ. Bu shoirlar lirkasi tiliga e'tibor beradigan bo'lsak, Maxmurning o'zi bir she'rini o'zbek tilida, yana boshqasini tojik tilida yozish bilan cheklanib qolmaydi, bir she'rini har ikki tilda ham erkin yoza organ. Misol uchun ba'zi muxammasarida birinchi bandi o'zbek tilida yozilgan bo'lsa, ikkinchi bandi esa tojik tilida, hattoki ayrim bandlarini beshinchi qatori o'zbek tilida yozilgan holatlari ham uchraydi. Bu bilan biz shoir mahorati, til boyligini anglashimiz mumkin.

*Xor qilding oqibat har kimki erdi arjumand,  
Past etding soyadek, naxlik bo'ldi sarbalaland,  
Barcha fe'ling nosutuda jumla vasfing napisand,  
Yusufi Misrini aylab chohi zindon ichra band,  
Piri Kan'on manzilini baytul-ahzon aylading. [4.19]*

*Ey falak, dar borai mo zulmi behad to bakay?  
Mo asiron dar tilismi mardumi bad to bakay?  
Bar sari mo roston shamshiri chun mad to bakay?  
Yak alam dar borai mo soxtan sad to bakay?  
Ey sitamparvar, yuraklar tah-batah qon aylading. [4.18]*

Maxmur hamda Nodimlar adabiy tilni xalq tiliga yaqinlashtirishga harakat qilgan, ya'ni xalq tilida keng ishlatiladigan, lekin adabiy tilga kirmaydigan so'z va iboralarni she'rlarda qo'llangan bu bilan tilimiz boyishiga katta xissa qo'shgan. U o'zining hajviy she'rlarida tanqid qilinuvchi kimsalarni salbiy jihatlarining fosh qilishda, ularga nisbatan o'quvchida nafrat va g'azab ifodalashda haqoratli ibora va so'zlarni qo'llagan. Ayniqsa, u bunday kimsalarni maishiy buzuqligi, vijdonsizligi, axloqsizligi hamda nomussizligini yoritib berayotganda o'zini aslo to'xtata olmagan. Ularni adabiy tilda ishlatilishi kerak bo'limgan bunaqa ifodalarni ishlatilishdan maqsadi tanqid qilinayotgan shaxslarning sirini to'lig'icha fosh qilish bo'lgan. Misol uchun lirkasida "ifriqsifat, aft-basharasi, shalg'om boshidin, paytavasidin salsa qilgan, lattadin aytin, shaltoq, badkayfturur, badfurut, ahli qo'tur, sassig' qamal, shilqimi beor" va boshqa shu kabilardir.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, hukmdor tabaqa vakillari hukm surgan davridagi o'zbek adabiyotida Amir Umarxon, Vazir, Ado, Fazliylar nomi bilan xarakterlanovchi, ular manfaatini kuylovchi "adabiyot vakillari"ga qarshi mehnatkash dehqonlar, hunarmand kosiblar hamda mazlum aholining boshqa tabaqlari manfaatlarini himoyalovchi ilg'or, ma'rifatparvarlik

g‘oyalarini ilgari suruvchi adabiyot namoyandalaridan Maxmur, Muqumiy, Nodim, Gulxaniylarni sharf bilan tilga olish o‘rinlidir. Bunday yo‘nalishdagi adabiyot vakillari mehnatkash aholi manfaatlarini kuyladilar, o‘z lirkasi orqali adabiyotga real hayot voqeligini kiritdilar. O‘z asarlarida tuzum manzaralarini yaqqol ochib bera odilar. Bu bilan hukmdor tabaqa vakillar boshqaruvi avj olgan davrdagi o‘zbek adabiyotida mavjud bo‘lgan ilg‘or, taraqqiyparvar yo‘nalishdagi adabiyotning o‘zbek adabiyoti tarixidagi o‘rni va ahamiyatini o‘zlarining satirik xarakterdagi ijod namunalari bilan tasvirlay oldilar.

**Foydalaniman adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Қаюмов А.. Махмур. Ўзбек адабиёти тарихидан материаллар. –Т. 1956. 140 Б.
2. Адабиёт хрестоматияси. –Тошкент: УзССР Уқув-педагогика нашриёти 1952 й., 6.153-159.
3. Orzibekov R. O‘zbek adabiyoti tarixi. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti. – Т.: 2006. 272B.
4. Maxmur. Tanlangan asarlari. O‘zSSR. – Т.: Fan 1951. 48 B.
5. Nodim Namangoniy, Tanlangan she’rlar, – Т. 1964. 88B.
6. Qo‘qon adabiy muhiti ijodkorlari antologiyasi. – Т.: Tamaddun. 2022. 130B.
7. Abdullayev V. O‘zbek adabiyoti tarixi. II kitob – Т.1964. 384 B.
8. Валихужаев В. Узбек адабиётшунослиги тарихи. – Тошкент: “Узбекистон” 1993. 156 Б.
9. Buriyeva, F. (2024). Shawkat Rahman's Translation Skills. *Miasto Przyszłości*, 55, 522-524.
10. Sharipova, S. (2025). Hikmatlarda iqtibos she'riy san'atining qo 'llanilishi. Jahon ilmiy qarashlarini tahlil qilish Xalqaro ilmiy jurnal , 3 (1), 168-171.
11. Nazarova, X. G. (2024). Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonidagi hikoyatlarda tasavvuf talqining yorqinligi. *Research Focus*, 3(11), 46-50.
12. Nazarova, X. G. (2024). Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonidagi hikoyatlarda orifona rux ifodasi. *Prospects and main trends in modern science*, 2(16), 36-39.
13. Nazarova, H. (2021). Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonidagi hikoyatlarda oriflar timsoli. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(11), 696-701.